



NOGIRON BOLALAR TA'LIM HUQUQI: TO'SIQLAR VA YECHIMLAR

Saidullayeva Shaxrizoda Raximjon qizi

Toshkent Davlat yuridik universiteti,

Jinoiy odil sudlov fakulteti, 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: Alamanova Shoiraxon

*Toshkent Davlat yuridik universiteti, Xalqaro huquq va inson huquqlari kafedrasida
o'qituvchisi*

Annotatsiya: *Mazkur maqolada nogiron bolalarning ta'lim olish huquqi xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar, amaliyot va nazariy yondashuvlar asosida o'rganilgan. Unda inklyuziv ta'lim tizimining dolzarbligi, mavjud infratuzilma, kadrlar, moliyaviy va ijtimoiy to'siqlar tahlil qilinib, ularni bartaraf etish bo'yicha taklif va yechimlar ilgari surilgan. Tadqiqot davomida xalqaro tajribalar, xususan AQSh va Yevropa sud qarorlari chuqur tahlil etilgan. Maqolaning asosiy xulosasi shundan iboratki, nogiron bolalarning ta'lim huquqini amalda to'liq ta'minlash uchun nafaqat huquqiy asoslar, balki ularni samarali ijro etish mexanizmlarining mavjudligi ham muhim ahamiyat kasb etadi.*

Kalit so'zlar: *Nogiron bolalar, ta'lim huquqi, inklyuziv ta'lim, xalqaro huquq, milliy qonunchilik, sud amaliyoti, tenglik, imkoniyat, ijtimoiy integratsiya, inson huquqlari*

Kirish

Mazkur mustaqil ishning asosiy maqsadi — nogiron bolalarning ta'lim olish huquqiga doir xalqaro va milliy huquqiy asoslarni, amaldagi muammolarni hamda ularni bartaraf etish yo'llarini tahlil qilishdan iborat. Tadqiqot metodlari sifatida huquqiy tahlil, taqqoslash, keys-stadi (sud qarorlari sharhi) va statistik ma'lumotlarni tahlil qilish uslublari qo'llaniladi.



Tadqiqot doirasidagi asosiy huquqiy muammo — O‘zbekistonda nogiron bolalarning ta’lim olish huquqi qonunlarda mustahkamlangan bo‘lsa-da, uning amaliy ta’minlanishida qator to‘siqlarning mavjudligidir. Mavzuga oid asosiy munozarali jihatlar — inklyuziv ta’limning milliy tizimga qanday integratsiya qilinishi, xalqaro standartlarning qanday qo‘llanilishi va huquqiy kafolatlarning ijrosi samaradorligidir.

Ilmiy-nazariy qism

Vatan, har bir davlat va millatning tayanchi — bu o‘sib kelayotgan yosh avloddir. Mamlakatning taraqqiyoti, xalqaro maydondagi obro‘-e‘tibori, nufuzi ko‘p jihatdan yoshlarning bilim olishi, ta’lim-tarbiyasining kafolatlanganiga bog‘liq. Shu bois birinchi Prezidentimiz Islom Karimov o‘z nutqlaridan birida: “Azaldan har qaysi ota-ona farzandining sog‘lom va barkamol, axloqan yetuk, baxtli bo‘lishini istaydi”¹, — degan edi. Bugungi globallashuv davrida esa hayotning o‘zi yosh avlod tarbiyasi borasida oldimizga yangi-yangi, nihoyatda muhim va dolzarb vazifalarni qo‘ymoqda.

Shu sababli jamiyatdagi eng zaif qatlam vakillari — bolalarning huquqlarini kafolatlash, ularni har tomonlama rivojlangan inson sifatida tarbiyalash masalasi doimiy e‘tiborda bo‘lishi lozim. Inson huquqlari sohasining nazariy va amaliy jihatdan kengayib borishi, xalqaro va milliy mexanizmlarining rivojlanishi bu boradagi faoliyatni yanada kengaytirmoqda.

Ayni paytda inson huquqlarining ixtisoslashuvi ham yuz bermoqda. Bu esa alohida subyektlarga xos himoya tizimlarining shakllanishi bilan tavsiflanadi. Jumladan, “Ayollar huquqlari”, “Nogironlar huquqlari”, “Bolalar huquqlari” kabi yo‘nalishlar shakllanib, jismoniy yoki ijtimoiy holati sababli alohida e‘tibor va yondashuvni talab qiladigan shaxslarning huquqlarini himoya qilishni nazarda tutadi.²

Bu toifadagi insonlar jismoniy yoki ijtimoiy holatlariga ko‘ra alohida e‘tibor va himoyaga muhtoj bo‘lganligi sababli jamiyatda teng huquqli subyekt sifatida rivojlanishlari, o‘z huquqlari va manfaatlarini erkin amalga oshirishlari, barcha imkoniyatlardan teng foydalanishlari zarur.



Demak, “bola” degan tushuncha kimga nisbatan qo‘llanadi? Bu savolga BMTning “Bola huquqlari to‘g‘risida”gi Konvensiyasining 1-moddasida aniq javob berilgan. Unda qayd etilishicha, 18 yoshga to‘lmagan har bir inson bola hisoblanadi (agar u milliy qonunchilikka binoan voyaga yetgan deb e’tirof etilmagan bo‘lsa).

Qonunchilikda bolalarning bir qancha toifalari sanab o‘tiladi. Masalan:

- yetim bola – ota-onasi vafot etgan yoki sud qaroriga ko‘ra vafot etgan deb topilgan bola;
 - nogiron bola – jismoniy yoki (yoki) aqliy rivojlanishida nuqsoni bo‘lgan bola;
 - ijtimoiy himoyaga muhtoj bola – turmush sharoiti og‘ir bo‘lgan, davlat va jamiyat tomonidan alohida himoya va qo‘llab-quvvatlashga muhtoj bola;
 - ota-ona qaramog‘idan mahrum bo‘lgan bola – ixtisoslashtirilgan muassasalarda tarbiyalanayotgan bolalar;
 - yashash joyiga ega bo‘lmagan, kam ta’minlangan oilalardagi bolalar;
 - jazoni ijro etish muassasalarida saqlanayotgan bolalar;
 - tabiiy ofatlar, qurolli mojarolar yoki boshqa favqulodda holatlar tufayli jabrlangan bolalar.
- O‘zbekiston Respublikasining “Nogironlarni ijtimoiy himoya qilish to‘g‘risida”gi qonuniga ko‘ra, nogiron bola – bu jismoniy, aqliy, ruhiy, sensor (sezgi) yoki boshqa nuqsonlari mavjud bo‘lgan, o‘z hayotiy faoliyatini mustaqil amalga oshirishda qiyinchiliklarga duch keladigan, ijtimoiy himoyaga muhtoj bola hisoblanadi. Bunday bolalarning ijtimoiy himoyasi deganda esa ularning kundalik hayotdagi cheklovlarini bartaraf etish, imkoniyatlarni tenglashtirish, jamiyatda faol ishtirok etish imkoniyatlarini yaratishga qaratilgan huquqiy, ijtimoiy va iqtisodiy chora-tadbirlar tizimi tushuniladi. O‘zbekiston qonunchiligiga ko‘ra, nogiron deb topish tibbiy-mehnat ekspert komissiyalari (16–18 yosh) yoki tibbiy maslahat komissiyalari (16 yoshgacha) tomonidan aniqlanadi. Xalqaro standartlarga ko‘ra esa nogironlik – shunchaki muayyan shaxsning sog‘lig‘i holati emas, balki uning jamiyatda mavjud imkoniyatlardan foydalanish imkoniyati cheklanganligini bildiradi. Har bir bola, shu jumladan nogiron bolalar ham, o‘z hayotini to‘laqonli yashash, rivojlanish va ta’lim olish, tibbiy xizmatdan foydalanish, mehnat qilish,



ijtimoiy yordam olish, murojaat qilish huquqi kabi bir qator huquqlarga ega. egadir. Zamonaviy jamiyatda nogiron bolalarning huquqlarini himoya qilish nafaqat axloqiy burch, balki davlatning huquqiy majburiyatidir. Xalqaro standartlarga amal qilgan holda, O'zbekiston bunday bolalarga teng imkoniyatlar va ijtimoiy integratsiyani ta'minlash uchun muhim qadamlar qo'yimoqda. Yevropa Ittifoqi va UNICEF tomonidan qo'llab-quvvatlangan hujjatda nogiron bolalarning huquqlarining asosiy jihatlari milliy qonunchilik va xalqaro konvensiyalar asosida batafsil bayon etilgan. Xalqaro hamjamiyat nogironligi bo'lgan shaxslarga, xususan bolalarga nisbatan imkoniyati cheklangan, ijtimoiy yordamga muhtoj kabi so'zlarni emas, balki "imkoniyati cheksiz" bolalar sifatida qarash va ular o'zlarini jamiyatdan ajralgan, alohida toifa sifatida yoki noqulay his qilmasliklari uchun o'z nutqlarida ham ushbu atamani qo'llashga harakat qilishmoqda. Bu borada ular o'z huquqlarini amalga oshirishda qolgan jamiyat a'zolari bilan munosabatlarga kirisha olishi, ajralib qolmasliklari, ular o'rtasidagi ijtimoiy munosabatlar faqat o'zlariga o'xshash toifalar bilan cheklanmasligini ta'minlash uchun qator chora tadbirlar ko'rilmoqda. Bular orasida ularning ta'lim huquqlari bilan bog'liq "inklyuziv ta'lim" tizimi joriy qilindi. Inklyuziv ta'lim – tenglikning asosi. "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi Qonunga ko'ra, maxsus ehtiyojlari bo'lgan bolalar oddiy maktab, kollej va oliy o'quv yurtlarida o'qish huquqiga ega. Buning uchun Brayl alifbosidagi moslashtirilgan darsliklar, ko'rish qobiliyati zaif bolalar uchun audio materiallar va eshitish qobiliyati pastlar uchun surdotarjima kabi sharoitlar yaratilgan. 2019-yilda Prezidentning PQ-4319-sonli qarori asosida oliy o'quv yurtlariga kirishda nogiron abituriyentlar uchun 2% kvota belgilanishi ularga imtiyozli shartlarda raqobatlashish imkonini beradi. Mazkur tizim nogiron bolalarning barcha bolalar bilan teng, bir xil sharoitda ta'lim olishlari uchun imkoniyatlar eshigini ochdi desak mubolag'a bo'lmaydi. Masalan, umumiy dars jarayonida ular murakkab materiallarni o'zlashtirish uchun individual rejalar (IEP), moslashtirilgan dasturlar yoki assistiv texnologiyalar (masalan, nutq sintezatorlari, audio kitoblar) bilan qo'llab-quvvatlanadi. Bu yondashuv bolalarning akademik salohiyatini oshirish bilan birga ularning mustaqillik qobiliyati va ishonchini rivojlantirishga xizmat qiladi.



Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, inklyuziv muhitda o'qigan nogiron bolalar matematika va savodxonlik ko'nikmalarini ancha yuqori darajada egallashadi. Umumiy sinf muhiti bolalarga bir-birlari bilan muloqot qilish, o'yinlar va loyihalarda hamkorlik qilish imkoniyatini yaratadi. Bu jarayon nafaqat nogiron bolalarda ijtimoiylashuvni rag'batlantirish, balki ularning tengdoshlari tomonidan qabul qilinishini osonlashtiradi. Masalan, tayanch-harakat nogironligi bo'lgan bola sport mashg'ulotlarida moslashtirilgan usullar orqali jamoaviy faoliyatda qatnashsa, bu barcha bolalarda inklyuziyaga nisbatan ijobiy nuqtai nazarni shakllantiradi. Shuningdek, bunday muhitdagi bolalar kamroq diskriminatsiya va izolyatsiyaga duch keladi, bu esa ularning ruhiy salomatligini mustahkamlaydi. Dunyo bo'yicha qabul qilingan qonunlar (masalan, BMTning Nogironlar huquqlari to'g'risidagi konvensiyasi) inklyuziv ta'limni universal huquq sifatida belgilaydi. Ko'pgina davlatlar bu tamoyilni maktab dasturlariga integratsiya qilish orqali nogiron bolalar uchun imtiyozli sharoitlar yaratmoqda. Bunday muhitni yaratishda maktablar universal dizayn tamoyiliga asoslangan binolar, qo'llab-quvvatlovchi xodimlar (masalan, logopedlar, psixologlar) va moslashtirilgan o'quv materiallari bilan jihozlanishi zarur. Finlandiya va Kanada kabi mamlakatlarda inklyuziv ta'lim samaradorligi yuqori hisoblanadi, chunki ular bolalarning turli ehtiyojlarini qoplash uchun resurslar va malakali o'qituvchilar bilan ta'minlangan. Inklyuziv ta'lim nafaqat individual, balki jamiyat taraqqiyotiga ham hissa qo'shadi. Nogiron bolalar erta yoshdan boshlab heterogen muhitga moslashib, kelajakda professional sohalarida faol ishtirok etishga tayyor bo'ladilar. Bu ularning o'zini-o'zi boshqarish qobiliyatini oshirish, davlat iqtisodiyotiga qo'shgan hissasini kuchaytirish imkonini beradi.

Shu bilan birga nogiron bolalarning qolgan asosiy huquqlari haqida ham so'z yuritadigan bo'lsak, nogiron bolalar bepul malakali tibbiy yordam olish huquqiga ega hisoblanadi. Bu faqat davolanishni emas, balki sanatoriyalarda reabilitatsiya, protez va ortopedik vositalar bilan ta'minlashni ham o'z ichiga oladi. Masalan, 2021-yilda Vazirlar Mahkamasining 411-sonli qaroriga ko'ra, davlat tibbiy xulosalar asosida nogiron aravachalari yoki eshitish moslamalari kabi reabilitatsiya vositalarini taqdim etadi. Mehnat qilish huquqida esa Qonunchilik ishga qabul qilishda




kamsitishni taqiqlaydi. 16 yoshdan boshlab nogiron o'smirlar ishlashi, 15 yoshdan esa ota-onalar roziligi bilan mehnat faoliyatini boshlashi mumkin. Ular uchun qisqartirilgan ish vaqti (haftasiga 24–36 soat) va uzaytirilgan ta'til (30 kun) belgilangan. Ish beruvchilar ularni kechki smenalar yoki dam olish kunlarida ishlashga jalb qila olmaydi (O'zbekiston Respublikasi Mehnat kodeksi). Shuningdek, Davlat moddiy qo'llab-quvvatlashni kafolatlaydi: pensiyalar, nafaqalar (oyiga 800 000 so'mdan boshlab), transport va turar-joy sharoitlari bo'yicha imtiyozlar taqdim etadi. Masalan, ko'zi ojiz bolalar va ularga hamrohlik qiluvchilar jamoat transportidan bepul foydalanish huquqiga ega (1996-yildagi O'RQ-278-sonli Qonun). Bundan tashqari, ota-onalar bolalari kasalxonada davolanganda ular bilan birga bo'lish imkoniyatiga ega. Mana shu huquqlarni amalga oshirishda agar mazkur huquqlari bilan bog'liq nizo vujudga kelsa, yoki boshqa har qanday vaziyatlar yuzasidan bolalar o'z huquqlarini himoya qilish uchun davlat organlariga mustaqil ravishda yoki huquqiy vakillari orqali murojaat qilishlari mumkin.

UNICEF va Yevropa Ittifoqininni inklyuziv ta'limni rivojlantirish kabi loyihalari hamkorlikning ahamiyatini ko'rsatadi. Ular nafaqat tashabbuslarni moliyalashtirish, balki O'zbekistonning huquqiy bazasini mustahkamlash uchun tajriba almashishga ham yordam beradi. O'zbekiston nogiron bolalarning huquqlarini himoya qilishda progressga erishdi, lekin muammolar saqlanib qolmoqda. Infratuzilmani qulaylashtirish, stereotiplarga qarshi kurashish va inklyuziv amaliyotlarni kengaytirish bo'yicha ishlarni davom ettirish zarur. Hujjatda ta'kidlanganidek, har bir bola jamiyatning teng huquqli a'zosi bo'lib, uning huquqlari faqat qog'ozda qolmasligi, balki hayotning har bir lazasida amalga oshirilishi kerak.

Nogiron bolalarning ta'lim huquqini ta'minlashda erishilayotgan qator yutuqlarga qaramay, mavjud kamchiliklarni ham ko'zdan qochirmaslik kerak. Xususan, ularning o'quv, ta'lim muassasalariga kirishi, o'quv binolarida harakatlanishi, baholash va darslarni qabul qilishdagi ayrim kamchiliklar mavjud hisoblanadi. Quyida nogironlarning ta'lim huquqi bilan bog'liq to'siqlarni



diagramma shaklida ifodalangan mazmuni ko'rib chiqamiz.



Ko'rib turibmizki, nogironligi mavjud bolalarning umumiy ta'lim muassasalarida o'qish istagi maxsus ta'lim muassasasida o'qishdan yuqori. Ammo ta'lim muassasalari rad etishi, ta'lim jamoasi qabul qila olmasligi, o'qituvchi pedagoglar yetishmasligi, ta'lim muassasalarining yo'qligi kabi qator muammolar tufayli ko'plab bolalar ta'lim ola olmayabdi yoki ta'lim olishni to'xtatgan.

Xulosa o'rnida shuni aytishimiz mumkinki, Inson huquqlari nazariyasi nuqtai nazaridan ta'lim olish huquqi shaxsning o'z salohiyatini to'liq namoyon etishida muhim omil hisoblanadi. Nogiron bolalarning ta'lim huquqi esa, teng imkoniyat, ijtimoiy integratsiya va kamsitmaslik tamoyillariga tayanadi. Liberal yondashuvda har bir insonning teng huquqliligi ustuvor sanalsa, sotsial yondashuv nogiron bolalarga qo'shimcha himoya va imkoniyatlar taqdim etish zarurligini ilgari suradi.



Huquqiy asoslari

Bularni amalda bajarilishi uchun ijtimoiy masalalar bilan shug'ullanuvchi davlat va xususiy muassasalar, sudlar, ma'muriy yoki qonun chiqaruvchi organlar tomonidan bolaning huquqlari va manfaatlari yaxshiroq ta'minlanishiga e'tibor berilishi lozim. Va albatta uning har bir huquq va ularga taqdim etiladigan imtiyozlar huquqiy asosga ega bo'lishi lozim.

Bola huquqlariga oid dastlabki hujjatlar XX asrning boshlarida 1919-yilda Xalqaro mehnat tashkiloti tomonidan "Sanoatda ishga qabul qilish uchun eng kichik yosh to'g'risida"gi konvensiya, 1924-yilda Millatlar Ligasi tomonidan "Bola huquqlari" Jeneva deklaratsiyasi qabul qilingan. Shu davrdan bola huquqlari bo'yicha xalqaro norma ijodkorlik faoliyatining rivojlanishi, xalqaro huquqiy hujjatlarning katta bazasi shakllangan.

Bola huquqlariga oid universal normalarni o'z ichiga qamrab oluvchi hujjatlarni ham o'z navbatida quyidagicha klassifikatsiyalash mumkin:

- BMTning inson huquqlariga oid universal standartlari deb ataluvchi umumiy deklaratsiyalar va konvensiyalari: Inson huquqlari umumjahon deklaratsiyasi, Fuqarolik va siyosiy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt, Iqtisodiy, ijtimoiy va madaniy huquqlar to'g'risidagi xalqaro pakt kabi universal hujjatlari;
- BMTning YUNESKO, XMT kabi ixtisoslashgan tashkilotlari tomonidan ta'lim, mehnat sohalarida qabul qilingan hujjatlari;
- bola huquqlari bilan chambarchas bog'liq bo'lgan alohida ijtimoiy guruhlar (ayollar) huquqlarini tartibga soluvchi xalqaro shartnomalar;
- muayyan huquqiy munosabatlar sohasini (jinoyat huquqi, oila huquqi, fuqarolik huquqi, mehnat huquqi) qamrab oluvchi universal hujjatlar;
- BMT Bosh Assambleyasi tomonidan qabul qilingan yuvenal yustitsiya, voyaga yetmagan shaxslarga nisbatan odil sudlovni amalga oshirish masalalariga oid hujjatlar;
- bola huquqlarini maxsus tartibga solishga qaratilgan deklaratsiyalar va konvensiyalar.

Bola huquqlari sohasida mintaqaviy xalqaro hujjatlarni ham quyidagicha



klassifikatsiyalash mumkin:

- Yevropa mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlar;
- Afrika mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlar;
- Amerika mintaqasi davlatlari hamkorligiga qaratilgan hujjatlar.

Afsuski, bolalar huquqlarini ta'minlash murakkab va muammoli bo'lgan Osiyo mintaqasiga oid bunday hujjat hali ishlab chiqilmagan. Bu esa bu mintaqada inson huquqlari bo'yicha mintaqaviy mexanizmning yo'qligi va bu sohada davlatlararo mintaqaviy hamkorlik juda ham sust ekanligi bilan xarakterlanadi. Demak, normativ hujjatlarni quyidagicha ajratib olishimiz mumkin:

BMTning Inson Huquqlari Umumjahon Deklaratsiyasi, Fuqarolik va Siyosiy Huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt (ICCPR), Iqtisodiy, Ijtimoiy va Madaniy Huquqlar to'g'risidagi Xalqaro Pakt (ICESCR) kabi hujjatlarda belgilangan huquqlar bolalarga ham tegishli. Ularda bolalarning tengligi, ekspluatatsiyadan himoya, ta'lim olish huquqi, onalik va bolalikni himoya qilish kabi tamoyillar mustahkamlangan. Masalan, ICCPRning 24-moddasida bolalarning irq, jins, din yoki ijtimoiy kelib chiqishidan qat'i nazar himoya qilinishi ta'kidlangan. ICESCRning 10-moddasida bolalarni iqtisodiy va ijtimoiy ekspluatatsiyadan himoya qilish, ularning mehnat sharoitlarini tartibga solish nazarda tutilgan. Bundan tashqari BMTning Ixtisoslashgan Tashkilotlari hujjatlarida

- YUNESKO: 1960-yilda Ta'limda kamsitishni bartaraf etish to'g'risidagi Konvensiya.

- XMT (Mehnat Tashkiloti):

- 138-sonli Konvensiya (1973) – Ishga qabul qilishning minimal yoshi.

- 182-sonli Konvensiya (1999) – Bolalar mehnatining eng yomon shakllarini tugatish.

- 1946-yildagi 77-78-sonli Konvensiyalar – Bolalarni majburiy tibbiy ko'rikdan o'tkazish va ularning mehnat sharoitlarini nazorat qilish kabi normalar belgilangan. 1949-yildagi Jeneva Konvensiyalari va 1977-yildagi Qo'shimcha Protokollar urush davrida bolalarni maxsus himoya qilishni talab qiladi. 1974-yildagi



Deklaratsiya favqulodda holatlarda ayollar va bolalarga alohida e'tibor berishni tavsiya qiladi. Shuningdek

- Xalqaro Farzandlikka Olish: 1993-yildagi Gaaga Konvensiyasi yetim yoki ota-ona qaramog'idan mahrum bo'lgan bolalarning oilada yashash va g'amxo'rlikidan foydalanish huquqini ta'minlashga xizmat qiladi.

- Inson Savdosi: 2000-yildagi Palermo Protokoli esa ayollar va bolalarni savdosiga qarshi kurashni nazarda tutadi. BMT Bosh Assambleyasining qarorlari balog'atga yetmaganlar huquqlarini shuningdek, quyidagi usullar bilan himoya qiladi:

- Pekin Qoidalari (1985): O'smirlarga nisbatan adolatli sudlov, aybsizlik prezumpsiyasi, advokat yordami, ota-ona ishtiroki kafolatlari.

- Ar-Riyod Prinsiplari (1990): Jinoyatchilikning oldini olish, jamiyatda integratsiya.

- Tokio Qoidalari (1990): Qamoqsiz jazo usullarini qo'llash.

Ularning ijrosi, bolalar huquqlarining ta'minlanishi va kafolatlanishida quyidagi tamoyillar asosiy rol o'ynaydi:

- Bolalar huquqlari milliy taraqqiyotning ajralmas qismi hisoblanadi.

- Bolalarni himoya qilishda oila, maktab va jamoat tashkilotlari faol ishtirok etishi zarur.

- Mehnat, ta'lim va sog'liqni saqlash sohalarida bolalarning ijtimoiy himoyasi ta'minlanishi lozim.

Xulosa

Nogiron bolalarning ta'lim olish huquqi bugungi kunda nafaqat inson huquqlarini himoya qilish, balki demokratik jamiyatlarda tenglik, adolat va inklyuzivlik tamoyillarini amalda ro'yobga chiqarish mezoniga aylanmoqda. Ushbu mustaqil ish davomida xalqaro va milliy huquqiy hujjatlar, nazariy yondashuvlar, sud amaliyoti hamda real holatlar asosida nogiron bolalarning ta'limga kirishida mavjud imkoniyatlar va to'siqlar chuqur o'rganildi.

Tadqiqot shuni ko'rsatdiki, ta'lim olish huquqi – bu faqatgina maktabda o'qish imkoniyatigina emas, balki bola shaxs sifatida o'zini rivojlantirishi,



jamiyatga to'laqonli qo'shilishi va kelajakda ijtimoiy-iqtisodiy hayotda faol ishtirok etishi uchun poydevordir. Bu huquqni ta'minlash esa kompleks yondashuvni talab etadi: huquqiy asoslar, institutsional mexanizmlar, ijtimoiy ong, infratuzilma va pedagogik malaka bir butun tizimda uyg'unlashishi lozim.

Xalqaro tajriba va sud qarorlari nogiron bolalarning ta'lim olish huquqiga doir cheklovlar faqatgina texnik yoki iqtisodiy sabablar bilan emas, balki tizimli yondashuvdagi nomuvofiqliklar bilan bog'liqligini ko'rsatadi. Jumladan, moliyaviy ajratmalarning teng taqsimlanmasligi, pedagogik kadrlar yetishmovchiligi, shikoyat va nazorat mexanizmlarining sust ishlashi bu huquqni amalda cheklab qo'yadi. Shu sababli, faqat qonun chiqarish emas, balki ijro mexanizmlarining sifatli va hisobdor ishlashi muhim.

O'zbekiston huquqiy tizimi so'nggi yillarda bu borada ijobiy siljishlarga erishgan bo'lsa-da, qonuniy me'yorlarning hayotga joriy etilishi hali ham izchil emas. Maktablar, tibbiy-psixologik komissiyalar, mahalliy hokimiyatlar va ota-onalarning bu sohadagi ishtiroki kuchaytirilishi, hamkorlik va koordinatsiya mexanizmlari mustahkamlanishi zarur.

Shuningdek, inklyuziv ta'limni joriy qilishda xalqaro tashkilotlar tajribasidan foydalangan holda, madaniy va mintaqaviy xususiyatlarni inobatga olgan holda moslashgan yondashuv zarur. Bu jarayonda bolaning subyektiv huquqi emas, balki uning shaxsiy ehtiyojlariga javob beruvchi, izchil va dinamik yondashuv asosiy mezoniga aylanishi lozim.

Shunday qilib, nogiron bolalarning ta'lim olish huquqini to'liq ro'yobga chiqarish uchun normativ asoslar yetarliligi bilan emas, balki ularni hayotga tatbiq etishdagi samaradorlik, monitoring va hisobotlilik tizimining kuchliligi hal qiluvchi ahamiyat kasb etadi. Bu esa jamiyatning har bir a'zosi — qonun chiqaruvchi, ijrochi, pedagog, ota-ona va fuqarolik jamiyati vakillaridan birdek mas'uliyat talab qiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

Muminov A.R., Tillabayev M.A. Bola huquqlari: Darslik / Mas'ul muharrir A.X.Saidov. – T.: "Adolat" nashriyoti, 2014.



G., Yuldasheva, N., Gafurova Inson huquqlari: darslik/G.Yuldasheva, N.Gafurova. - T.: TDYU nashriyoti, 2023.

“Amalga oshirayotgan islohotlarimizni yanada chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyati qurish – yorug‘

kelajagimizning asosiy omilidir”. Prezident Islom Karimovning O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi qabul qilinganligining 21-yilligiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi ma‘ruzasi. /Xalq so‘zi, 2013-yil 7 dekabr

Foydalanilgan qonun hujjatlari:

1. BMT Bola huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya, 1989.
2. Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiya (CRPD), 2006.
3. O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi (2023-yil tahriri).
4. “Ta‘lim to‘g‘risida”gi Qonun, 2020.
5. “Nogironlar huquqlari to‘g‘risida”gi Qonun, 2021.
6. O‘zbekiston Prezidentining “Inklyuziv ta‘limni rivojlantirish konsepsiyasi” (2022).